

OLMA BOG'LARIGA SHARQ MEVAXO'RINING YETKAZADIGAN ZARARI

S.A.Mirzayeva

X.S.To'g'onboyev

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni ortib bormoqda va bu oziq-ovqat taqchilligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qishloq xo'jalik maxsulotlarini zararli organizmlardan himoya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday xavfli zararkunandalarga O'zbekiston hududida ichki karantin hashorati hisoblangan sharq mevaxo'ri zararkunandasi ham misol bo'la oladi. Ushbu hashorat asosan mevali daraxtlar hosilini kamayishiga va sifatini buzilishiga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada sharq meva qurtining olma bog'lariga yetkazadigan zarari haqida atroflicha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Zararkunanda, olma daraxti, mevali daraxtlar, gumbak, lichinka, imago, ichki karantin, sharq mevaxo'ri, yosh novdalar, o'zak zararlanishi, qurish, chekanka.*

Hozirgi kunga kelib qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida bir qator ishlar amalga oshirish extiyoji tug'ilmoqda. Darhaqiqat respublikada mevali daraxtlarni maydonlarini kengaytirish bo'yicha ko'plab prizident qarorlari qabul qilinmoqda. Bu esa mevachilikni yanada takomillashtirish asnosida ko'proq maxsulot yetishtirishni ham taminlaydi.

Mevali daraxtlar orasida olma mevasi inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi va tabiiy mikroelement temirga boy hisoblanadi.

Olma (*Malus mill*). Keng tarqalgan meva ekinlardan bo'lib, umumiy ekin maydonining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Olma mazali bo'lganligidan yangiligicha, qayta ishlangan holda istemol qilinadi.

Olmadan konserva, povidlo, pastila, pyure, marmelad, murabbo, sharbat, vino, kompot, qoqi va boshqa maxsulotlar tayyorlanadi. O'zbekistonda yetishtiriladigan olmalar tarkibida o'rtacha 80.5-86.5% suv; 9.6-14.8 % shakar; 0,31-0,91 % kislotalar; 0,27-0,48 % eruvchan pektin; 0,025-0,060 % ga yaqin oshlovchi moddalar; 0,10-0,45 % mineral tuzlar va bir qancha vitaminlar bor. Olmaning (qishda yangi uzilgan mevalar kam bo'lganda) vitaminlarga boy , yaxshi saqlanadigan qishki navlari ayniqsa qimmatli hisoblanadi.

Olma katta daraxt bo'lib, baquvvat tanasining balandligi 12-20 m ga yetadi. Uning shox-shabbasi ham ancha keng yoyilgan bo'ladi. Hosilga kirish va mevasining pishish muddatlari navlar bo'yicha har xil bo'ladi. Pishish muddatiga qarab yozgi, kuzgi va qishki navlarga bo'linadi. Mevasining shakli, yirik-maydaligi, rangi va xushbo'ligi bir-biridan farq qiladi. Masalan kuzgi-qishki navlardan Renet Simirenko, Rozmarin Belyi, Jon Red navlari tashishga chidamliligi , uzoq saqlanishi va serhosilligi bilan farqlanadi.

Olma daraxti kuchli payvandtaglarda o'stirilganda o'rta hisobda 45-50 yil, ayrim tuplari esa 100 yil va undan uzoqroq yashaydi. Olma turkumining 50 ga yaqin turi bor. [1; 15-16 betlar]

O'zbekiston sharoitida olma daraxtlarining o'sishi 200-220 kun davom etadi. Olma aprel oyida gullaydi va bu jarayon 9-16 kun davom etadi. Erta gullash 23-25 martdan , eng kech gullash esa 25-27 apreldan boshlanadi. [1; 26- bet].

Madaniy o'simliklar orasida mevali bog' daraxtlari turli zararkunandalar bilan eng ko'p shikastlanadi. Bunga asosiy sabab, uzoq vegetatsiya hamda daraxt tanasining nisbatan yirikligidir. Bu yerda oziqlanish jihatidan turli gurux bo'g'imoyoqli jonivorlarning namunalarini uchratish mumkin: barg, novda, meva, va ildiz zararkunandalari. Umuman, O'zbekiston sharoitida mevali daraxtlarda 300 dan ortiq bo'g'imoyoqli jonivorlar oziqlanadi. Urug'li (olma, nok, behi) va danakli (o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, gilos) mevali daraxtlarga zarar keltiruvchi asosiy zararkunandalarni oziqlanish turiga qarab so'ruvchi va kemiruvchi guruhlariga ajratish mumkin. [2; 202-bet]

Olma daraxtini zararlovchi kasalliklar va zararkunandalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa zararkunanda hashorotlar yildan-yilga olma hosili sifatiga kuchli zarar yetkazmoqda. Bu esa maxsulot sifatini buzilishiga va eksport hajmining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Olmada asosan: Olma biti – (*Aphis Pomi*), Qon biti – (*Eriosoma Lanigerum Hausm*), Kaliforniya qalqondori – (*Diaspidiotus Perniciosus Comst*) , Nok qandalasi – (*Stephanitis pyri F*), Oddiy o'rgimchakkana – (*Tetranychus urticae Koch*), Qizil o'rgimchakkana – (*Panonychus ulmi*), Olma mevaxo'ri – (*Carpocapsa pomonella L*) va SHarq mevaxo'ri – (*Grapholitha molesta Busck*) kabi zararkunandalar ziyon keltiradi. Bular orasidan sharq mevaxo'rining zarari oshib bormoqda . Bu esa hashorotga qarshi kurash choralarini yanada takomillashtirish va yangi preparatlar ustida tajribalar olib borish extiyojini keltirib chiqarishi kutilgan hol albatta.

SHarq mevaxo'ri – *Grapholitha molesta Busck* (Lepidoptera, Tortricidae - barg o'rovchilar oilasiga mansub). O'zbekistonda ichki karantin obykti hisoblanadi. [2; 229 – bet].

SHarq meva qurti dunyoda keng tarqalgan hasharot. U Avstraliya, SHimoliy va Janubiy Amerika, Yevropaning o'rta va janubiy qismida, Ukraina, Kavkaz, Rossiyaning janubiy- g'arbiy qismida uchraydi. O'zbekistonda sharq meva qurtini Farg'ona vodiysining barcha hududlarida uchratish mumkin.

Kapalagi qanot yozganda 11-15 mm keladi, old qanotlari qoramtir- qo'ng'ir, old chetidan 7 ta juft oqish yaltiroq chiziqlar o'tadi, orqa qanotlari oqroq-och jigarrang. Tuxumining uzunligi 0,5-0,9 mm, kengligi 0,4-0,8 mm keladi, rangi oq, keyinchalik qizara boshlaydi. Qurtlari (9-13 mm) 1-3 yoshida – boshi qora, tanasi oq tusda, keyingi yoshlarida (4-5) qizarib, boshi va ko'krak qalqoni jigarrangga aylanadi. G'umbagi 5,2-7,6 mm, tusi jigarrang, tanasining oxirida 10-18 ta tikanchasi mavjud. Kapalak chiqishidan oldin g'umbak qorayadi. [2; 229 – bet]

Lab qismi och-qo'ng'ir, qorin qismi, to'q-sarg'ish qo'ng'ir, qorin qismining pasti esa ipaksimon oq rangda oyoqlari qoramtir rangda, sarg'ish oq kalta tuklar bilan qoplangan. Urg'ochi kapalak erkagiga nisbatan kattaroq bo'ladi. [4; 9-bet].

SHarq mevaxo'ri yetuk qurt shaklida meva daraxtlarining o'zida (po'stloq osti, g'ovaklar) hamda yerda hascho'plar ostida zich pilla ichida qishlab chiqadi. Bahorda qurt g'umbaklanadi va undan kapalak uchib chiqadi. Bir necha kundan keyin urg'ochi zot tuxum qo'yishga kirishadi. Har bir zot bir nechtadan 100 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. 7-12 kundan keyin (bahorda) tuxumdan qurt chiqib, novdaning o'sish nuqtasiga kemirib kiradi va o'zagidan pastga qarab 6-11 sm li yo'lak ochadi. Qattiq qismga kelgach kemirib tashqariga chiqadi va boshqa novdaga (yoki mevaga) kirishga harakat qiladi. Novdaning zararlangan qismi so'lib quriydi, u "chekanka" qilingandek shoxlab ketadi. SHarq mevaxo'rining qurtlari novdalardan tashqari olma qurti singari daraxt mevalarini ham shikastlashi mumkin. Bunda danakli mevalar ichida (9-14 kun) urug'lik mevalar ichidan ko'ra (16-24 kun) kamroq vaqt bo'ladi. [2 ; 229 – bet].

Olma va nokning yosh ko'chatlarida lichinka 1-2 sm gacha kirib boradi, zararlangan qismlar qorayadi va quriydi. Zararlangan ko'chat qismlarida chiqarishda va yelimli tomchilarni uchratish mumkin. Bitta lichinka 4-5 ta ko'chatni zararlashi mumkin. Mevalarda esa meva bandlari atrofi va bandlar orqali keyingi mevalarga ham o'tib zarar keltiradi. [4; 13 – betlar].

SHarq mevaxo'ri qurtlari zararlangan mevalarda ikkilamchi kasallik ya'ni qo'ng'ir chirish (*Monilinia spp*) kasalligi ham kelib chiqishi kuzatilgan. Bu esa mevaning butunlay yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, olma bog'larini ushbu zararkunanda bilan zararlanishi jiddiy holat hisoblanib, befarq bo'lmaslikni talab etadi chunki hasharotni tarqalishini oldi olinmasa, sifatli hosilni kamayishiga va yosh ko'chatlarni nobut bo'lishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.E. Ostonaqulov, S.X.Narziyeva, B.X. G'ulomov Mevachilik asoslari // "Tafakkur bo'stoni" Toshkent-2011
2. SH.T.Xo'jayev Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan ximoya qilish tizimining asoslari (4-nashr)// Toshkent OOO "Yangi Nashr Nashriyoti" 2019
3. O'zbekiston savdo-sanoat palatasi O'zbekistonda zamonaviy intensiv olma bog'lari // Baktia Press Toshkent 2016.
4. B.Muhammadiyev, F.Zohidov, J.Mamashev SHarq mevaxo'ri – *Grapholitha molesta* Busck. Karantin hasharoti to'g'risida tavsiyanoma // Toshkent - 2012

5. N.Nishonov, X.Turoпова SHarq mevaxo'ri haqida nima bilasiz?//jurnal SHirinMeva 9-son 2021-yil
6. Nabiev U.Ya. Tomorqa va dala havlilardagi bog' va tokzorlarni zararkunanda va kasalliklari. – 1991.
7. Aralov X, Qo'chqarov B, Qalandarov A. Sifatli mevalar yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni. J.O'zbekiston qishloq xo'jaligi №4. 2015 y.
8. Мирзаева С. А. (2019). Как бороться с ореховой плодовой жук. Академическая публицистика, (11), 56-59.